

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufataxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 49-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBЕК

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49





KORXONA FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA FOYDA VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARI

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Andijon davlat texnika instituti

Iqtisodiyot yo'nalishi 2-bosqich talabasi

E-mail: abdullohturgunov2006@gmail.com

ORCID: 0009-0002-4083-1039

Annotatsiya. Maqolada korxona faoliyati iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlarining nazariy-amaliy jihatlari tahlil qilingan. Foydaning asosiy turlari, ularni hisoblash usullari hamda rentabellik koeffitsiyentlarining iqtisodiy mazmuni yoritilgan. Shuningdek, foyda va rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil qilinib, ularning korxona moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyati asoslangan. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan iqtisodiy islohotlar hamda Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida korxonalar moliyaviy natijalari tahlil qilinib, iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, foyda, sof foyda, yalpi foyda, rentabellik, aktivlar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi, iqtisodiy tahlil, moliyaviy natija, sanoat korxonalari.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты использования показателей прибыли и рентабельности при оценке экономической эффективности деятельности предприятий. Рассмотрены основные виды прибыли, методы их расчёта и экономическое содержание показателей рентабельности. Проанализированы внутренние и внешние факторы, влияющие на уровень прибыли и рентабельности, а также их роль в обеспечении финансовой устойчивости и конкурентоспособности предприятий. На основе экономических реформ, проводимых в Республике Узбекистан, и данных Национального комитета по статистике выполнен анализ финансовых результатов предприятий и разработаны научные выводы и практические рекомендации по повышению эффективности их деятельности.

Ключевые слова: экономическая эффективность, прибыль, чистая прибыль, валовая прибыль, рентабельность, рентабельность активов, рентабельность собственного капитала, экономический анализ, финансовые результаты, промышленные предприятия.

Annotation. This article examines the theoretical and practical aspects of using profit and profitability indicators in assessing the economic efficiency of enterprise activities. The main types of profit, methods for their calculation, and the economic essence of profitability indicators are analyzed. Internal and external factors affecting profit and profitability are identified, and their role in ensuring financial stability and enhancing the competitiveness of enterprises is substantiated. Based on recent economic reforms implemented in the Republic of Uzbekistan and official statistical data, the financial performance of enterprises is analyzed, and scientific conclusions and practical recommendations aimed at improving economic efficiency are proposed.

Keywords: economic efficiency, profit, net profit, gross profit, profitability, return on assets, return on equity, economic analysis, financial performance, industrial enterprises.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning barqaror faoliyat yuritishi, raqobatbardoshligini oshirish va investitsiyaviy jozibadorligini ta'minlash ko'p jihatdan ularning iqtisodiy samaradorlik darajasiga bog'liq hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonida mavjud mehnat, moddiy, moliyaviy va intellektual resurslardan qay darajada oqilona va tejamkorlik bilan





foydalanilganligini ifodalaydi. Samaradorlikni baholashda qo'llaniladigan ko'plab iqtisodiy ko'rsatkichlar ichida foyda va rentabellik alohida o'rin tutadi. Mazkur ko'rsatkichlar nafaqat korxonaning moliyaviy natijalarini baholash, balki uning kelgusi rivojlanish strategiyasini belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOT TAHLILI

Mamlakatimizda so'nggi yillarda korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, foydalilik darajasini yuksaltirish hamda korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 apreldagi PF-70-son Farmoni, 2025 yil 21 apreldagi PQ-145-son qarori, 2024 yil 19 apreldagi PQ-163-son va PQ-162-son qarorlarida davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy natijadorligi, aktivlardan foydalanish samaradorligi, rentabellik darajasini oshirish hamda xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan [1].

METODOLOGIYA

Foyda korxona iqtisodiy faoliyatining asosiy maqsadi va yakuniy moliyaviy natijasi hisoblanadi. Foyda hajmining o'sishi ishlab chiqarish samaradorligining oshganligini, mahsulotga bozorda talab yuqoriligini hamda resurslardan samarali foydalanilayotganligini anglatadi. Shu bilan birga, foyda korxonaning o'zini o'zi moliyalashtirishi, investitsiyalarni amalga oshirishi, yangi texnologiyalarni joriy etishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishi hamda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishi uchun asosiy moliyaviy manba vazifasini bajaradi [2].

Iqtisodiy adabiyotlarda foydaga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ularning umumiy mazmuni korxona daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi ijobiy farqni anglatadi. Bunda daromadlarni oshirish yoki xarajatlarni kamaytirish hisobiga foydani ko'paytirish mumkin. Shuning uchun foydani tahlil qilish jarayonida uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar chuqur o'rganiladi [8].

Korxonalar moliyaviy hisobotlarida foydaning bir nechta turlari hisoblab chiqiladi. Ulardan har biri muayyan iqtisodiy mazmunga ega.

Yalpi foyda mahsulot sotishdan tushgan sof tushum bilan sotilgan mahsulot tannarxi o'rtasidagi farqni ifodalaydi.

$$YAF = ST - MT$$

bu yerda:

YAF – yalpi foyda;

ST – sotishdan tushgan sof tushum;

MT – sotilgan mahsulot tannarxi.

Yalpi foydaning o'sishi mahsulot ishlab chiqarish tannarxi pasayganligini yoki sotish hajmi hamda sotish narxi oshganligini ko'rsatadi.





Keyingi bosqichda operatsion foyda hisoblanadi. U yalpi foydadan davr xarajatlari ayirilib, boshqa operatsion daromadlar qo'shilgan holda shakllanadi.

$$OF = YAF - DX + BOD$$

bu yerda:

OF – operatsion foyda;

DX – davr xarajatlari;

BOD – boshqa operatsion daromadlar.

Shundan keyin korxonaning moliyaviy faoliyati natijalari hisobga olinib, soliq to'lashga qadar foyda aniqlanadi.

$$STQF = OF + MD - MX$$

bu yerda:

MD – moliyaviy daromadlar;

MX – moliyaviy xarajatlar.

Korxona ixtiyorida qoladigan asosiy moliyaviy natija esa sof foyda hisoblanadi.

$$SF = STQF - \text{Soliqlar}$$

Sof foyda korxona ixtiyorida qolib, dividendlar to'lash, investitsiyalar, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va zaxira fondlarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Biroq iqtisodiy samaradorlikni baholashda faqat foyda miqdori bilan cheklanib bo'lmaydi. Chunki bir xil foydaga turli hajmdagi resurslar sarflanishi mumkin. Shuning uchun nisbiy ko'rsatkichlar – rentabellik koeffitsiyentlari hisoblanadi.

Rentabellik resurslardan foydalanish samaradorligini aks ettiruvchi muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u har bir sarflangan so'm xarajat yoki jalb qilingan kapital hisobiga qancha foyda olinayotganligini ko'rsatadi.

Amaliyotda quyidagi rentabellik turlari eng ko'p qo'llaniladi [9].

Mahsulot rentabelligi – mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlar qay darajada o'zini oqlayotganligini baholaydi.

$$R_m = (\text{Foyda} / \text{Mahsulot tannarxi}) \times 100 \%$$

Ko'rsatkich yuqori bo'lishi mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini bildiradi.

Sotish rentabelligi – sotishdan tushgan har bir so'm tushum hisobiga qancha sof foyda to'g'ri kelayotganligini ko'rsatadi.

$$R_s = (\text{Sof foyda} / \text{Sof tushum}) \times 100 \%$$

Ushbu koeffitsiyent korxonaning narx siyosati va xarajatlar boshqaruvini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Aktivlar rentabelligi (ROA) – aktivlardan foydalanish samaradorligini baholaydi.

$$ROA = (\text{Sof foyda} / \text{O'rtacha jami aktivlar}) \times 100 \%$$

ROA qanchalik yuqori bo'lsa, korxona mavjud aktivlardan shunchalik samarali foydalanayotgan bo'ladi.

Xususiyl kapital rentabelligi (ROE) – mulkdorlar kapitali samaradorligini baholaydi.





$$ROE = (\text{Sof foyda} / \text{O'rtacha xususiy kapital}) \times 100 \%$$

Investorlar aynan ushbu ko'rsatkichga katta e'tibor qaratadilar.

Ishlab chiqarish fondlari rentabelligi – asosiy vositalar hamda aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi.

$$\text{Rif} = (\text{Balans foydasi} / (\text{Asosiy ishlab chiqarish fondlari} + \text{Meyorlashtirilgan aylanma mablag'lar})) \times 100 \%$$

Ushbu ko'rsatkich sanoat korxonalari uchun muhim iqtisodiy mezon hisoblanadi. Foyda va rentabellik darajasiga quyidagi omillar bevosita ta'sir ko'rsatadi: mahsulot ishlab chiqarish hajmi; mahsulot tannarxi; sotish narxi; mehnat unumdorligi; asosiy vositalardan foydalanish darajasi; aylanma mablag'lar aylanish tezligi; mahsulot assortimenti; bozor konyunkturasi; inflyatsiya darajasi; soliq siyosati; energiya va xomashyo narxlari; raqobat muhiti[7].

Ushbu omillarni ikki guruhga ajratish mumkin: ichki va tashqi omillar. Ichki omillarga korxona rahbariyati boshqarishi mumkin bo'lgan xarajatlar, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish darajasi kirs, tashqi omillarga davlat siyosati, inflyatsiya, valyuta kursi, bozordagi talab va taklif kabilar kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Foyda va rentabellik ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish jarayonida ularning dinamikasi, tarkibiy o'zgarishlari hamda ularga ta'sir etuvchi omillar – mahsulot hajmi, narx siyosati, tannarx, mehnat unumdorligi, aktivlar aylanishi va kapital tuzilmasi atroflicha o'rganiladi. Bunday tahlil korxona rahbariyatiga iqtisodiy qarorlar qabul qilish, investitsiya loyihalarini baholash, ichki imkoniyatlarni aniqlash va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi [8].

Ayniqsa, to'qimachilik sanoati korxonalarida mazkur ko'rsatkichlarni tahlil qilish ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, eksport samaradorligi, mahsulot tannarxi va mehnat unumdorligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun iqtisodiy tahlil jarayonida foyda va rentabellik ko'rsatkichlari mehnat unumdorligi, fond qaytimi, material sig'imi va aktivlar aylanishi kabi boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan kompleks ravishda o'rganilishi lozim[3].

1-jadval

O'zbekistonda yirik va o'rta korxona hamda tashkilotlarning moliyaviy natijalari (2022–2024 yy.)*

Ko'rsatkich	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2024/2023, %
Balans foydasi (solliqqacha moliyaviy natija), mlrd so'm	57 255,00	46 260,40	76 948,20	166,3
Foyda bilan faoliyat yuritgan korxonalar ulushi, %	76,4	77,1	77,9	+0,8 п.п.
Zarar bilan faoliyat yuritgan korxonalar ulushi, %	23,6	22,9	22,1	–0,8 п.п.

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Korxona va tashkilotlarning moliyaviy natijalari, 2024 yil.





Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilning yanvar–avgust oylari yakuni bo'yicha respublikada yirik va o'rta korxona hamda tashkilotlarning soliq to'lashga qadar bo'lgan balans foydasi 76,9 trln so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2023 yilning mos davriga nisbatan 30,7 trln so'mga yoki 66,3 foizga oshgan. Mazkur holat mamlakatda iqtisodiy faollikning kengayishi, sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishi hamda korxonalarning moliyaviy natijalari yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi [3].

Shu bilan birga, hisobot davrida foyda bilan faoliyat yuritgan korxonalarning ulushi 77,9 foizni tashkil etgan bo'lib, zarar bilan ishlagan korxonalar ulushi 22,1 foizga teng bo'lgan. Bu esa respublikada aksariyat korxonalarning moliyaviy barqaror faoliyat yuritayotganligini va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari izchil yaxshilanib borayotganligini ko'rsatadi [5].

Mazkur natijalar korxonalarda xarajatlarni boshqarish tizimining takomillashayotgani, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanilayotgani hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar foyda va rentabellik ko'rsatkichlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi[2].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, foyda va rentabellik korxona iqtisodiy samaradorligini baholashning eng muhim moliyaviy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Foyda korxona faoliyatining mutlaq iqtisodiy natijasini ifodalasa, rentabellik ushbu natijaning sarflangan resurslarga nisbatan samaradorligini belgilaydi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida ushbu ko'rsatkichlarni muntazam tahlil qilish, ularga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalangan holda prognoz qilish korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 apreldagi PF–70-son Farmoni. 2025 yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 apreldagi PQ–145-son qarori. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xalqaro bozorlarda xususiylashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 apreldagi PQ–163-son qarori. Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 19 apreldagi PQ–162-son qarori. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekistonning statistik axborotnomasi. – Toshkent, 2025.





6. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 16th Edition. Boston: Cengage Learning, 2022.
7. Gitman L.J., Zutter C.J. Principles of Managerial Finance. 16th Edition. Pearson Education, 2022.
8. Ross S.A., Westerfield R.W., Jordan B.D. Fundamentals of Corporate Finance. 13th Edition. McGraw-Hill Education, 2022.
9. Higgins R.C. Analysis for Financial Management. 13th Edition. McGraw-Hill Education, 2023.



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**